O‘ZBEKISTON MUZEYLARI ZAMONAVIY QARASHLAR VA INNOVATSIYALAR TALQINIDA

Ismailova Jannat Xamidovna
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori
tarix fanlari doktori, professor
DOI: 10.67620/artdsgn.690022

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda madaniyat va muzey ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, muzeylarni modernizatsiya qilish jarayoni hamda tarixiy-madaniy merosni zamonaviy muzey texnologiyalari asosida namoyish etish masalalari tahlil qilingan. Xususan, Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy majmuasi muzeylarining tashkil etilishi, ularda tarixiy manbalar va ilmiy merosni namoyish etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Muzey ekspozitsiyalarida mulьtimedia, animatsiya, interaktiv texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanishning ilmiy-ma’rifiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Temuriylar davri tarixi, Amir Temur va uning avlodlari merosini muzey vositalari orqali ommalashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda zamonaviy muzeylarning tarixiy xotirani shakllantirish, milliy madaniy merosni asrash va yosh avlodni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muzey, muzeyshunoslik, muzey ekspozitsiyasi, madaniy meros, tarixiy meros, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Temuriylar, Amir Temur, raqamli texnologiyalar, mulьtimedia, interaktiv texnologiyalar, muzey kommunikatsiyasi.*

Abstract. *The article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan in recent years in the field of culture and museum studies, the modernization of museums, and the presentation of historical and cultural heritage through contemporary museum technologies. Particular attention is paid to the museums of the Center for Islamic Civilization and the Imam al-Bukhari Complex, as well as to modern approaches to the presentation of historical sources and scholarly heritage. The article highlights the educational and scholarly significance of multimedia, interactive technologies, animation, mapping, and other digital tools used in museum exhibitions. It also examines the role of museums in promoting the history of the Timurid period and the historical and cultural heritage of Amir Timur and his descendants. The study emphasizes the role of modern museums in preserving historical memory, promoting national cultural heritage, and contributing to the development of spiritual and moral values among younger generations.*

Keywords: *museum, museology, museum exhibition, cultural heritage, historical heritage, Center for Islamic Civilization, Imam al-Bukhari, Timurids, Amir Timur, digital technologies, multimedia, interactive technologies, museum communication.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar madaniyat sohasini ham qamrab olmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasining rivojlantirilishi, tarixiy-

madaniy obidalarni asrash va tiklash, turistik marshrutlarni takomillashtirish hamda yangi turistik obyektlarning tashkil etilishi mazkur islohotlarning muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Mazkur jarayonda muzeylar faoliyatini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Muzeylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ekspozitsiyalarni zamonaviy muzeyshunoslik talablari asosida yangilash, tarixiy-madaniy meros obyektlarini ilmiy asosda o‘rganish va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muzeylarning jamiyatdagi ilmiy-ma’rifiy, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

2026-yil 17-mart kuni Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilishi bo‘lib o‘tdi. Mazkur markaz O‘zbekistonning qadimiy tarixi va sivilizatsiyasi bilan bog‘liq moddiy va ma’naviy meros namunalarini yagona ma’rifiy makonda namoyish etish, shuningdek, mamlakatimiz hududida shakllangan ilmiy, intellektual va madaniy an’analarni keng targ‘ib etishga xizmat qiluvchi yirik madaniy-ma’rifiy muassasalardan biridir.

Islom sivilizatsiyasi markazi tarkibidagi muzey O‘zbekiston hududida islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishi, ilm-fan, ta’lim va ma’rifat taraqqiyotiga qo‘shilgan hissani kompleks tarzda namoyish etishga yo‘naltirilgan zamonaviy muzey instituti sifatida shakllangan. Markazda tarixiy manbalarni saqlash va namoyish etish bilan bir qatorda multimedia, interaktiv texnologiyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ham yaratilgan. Mazkur yondashuv muzey ekspozitsiyalarining mazmunini kengaytirish, tashrif buyuruvchilarning tarixiy materiallarni idrok etish imkoniyatlarini oshirish hamda muzeyning ma’rifiy funksiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Islom sivilizatsiyasi markazi qariyb 10 gektar hududda joylashgan bo‘lib, binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Muzeyda “Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari”, “Birinchi Renessans”, “Ikkinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori” kabi ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Markazning asosiy zallaridan biri bo‘lgan Muqaddas Qur’on zalida qadimiy Qur’on qo‘lyozmalaridan biri — Usmon Mus’hafi alohida o‘rin egallagan.

Muzey ekspozitsiyasini shakllantirish va boyitish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘tgan yil davomida 1,5 mingdan ortiq eksponat, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar ekspozitsiyaga joylashtirilgani qayd etilgan. Shuningdek, xorijiy auksion uylari, yirik kolleksionerlar va san’at bozori vakillari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, 743 ta eksponatning asl nusxalari O‘zbekistonga olib kelingan.

Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyining xalqaro miqyosda e’tirof etilishi ham uning zamonaviy madaniy infratuzilmadagi o‘rnini ko‘rsatadi. Jumladan, muzey Prix Versailles talqiniga ko‘ra 2026-yilda dunyoning eng go‘zal muzeylari ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, “CNN” telekanali Islom sivilizatsiyasi markazini zamonaviy davrning yirik madaniy loyihalaridan biri sifatida e’tirof etib, uning me’moriy ko‘lami va o‘ziga xos fazoviy yechimlariga e’tibor qaratgan.

2026-yil 13-aprel kuni O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi “Dunyodagi eng yirik Islom sivilizatsiyasi muzeyi” sifatida Guinness World Records tomonidan rasman e’tirof etilgani ham markazning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko‘rsatuvchi muhim voqealardan biridir.

Islom sivilizatsiyasi tarixi va uning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish hamda targ‘ib etishda Imom al-Buxoriy majmuasi ham alohida ahamiyatga ega. Buyuk muhaddis Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810-yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan. U 870-yilda Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida vafot etgan va shu hududda dafn etilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra,

alloma vafotidan keyingi davrlarda uning qabri joylashgan hudud uzoq vaqt davomida yetarli darajada obod qilinmagan.

Taniqli olim U. Uvatov o‘zining “Buyuk muhaddislar” asarida Imom al-Buxoriy va uning zamondoshlarining hadis ilmi rivojidagi o‘rnini keng yoritgan. Muallif Imom al-Buxoriy ilmiy merosining nafaqat fiqhiy va aqidaviy, balki insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti va jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi jihatlariga ham alohida e’tibor qaratgan.

Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” (“Sahihi Buxoriy”) asari islom ilmiy an’anasida muhim hadis to‘plamlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur asar asrlar davomida hadis ilmining muhim manbalaridan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Allomaning “Al-Adab al-Mufrad” (“Odob durdonalari”) asari esa insonning axloqiy fazilatlari, odob-axloqi va tarbiyasiga oid hadislarni jamlagan muhim manbalardan biridir. Ushbu asar musulmon jamiyatida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarini o‘rganishda muhim ilmiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. “Al-Adab al-Mufrad”da insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onaga hurmat, qarindoshlik rishtalarini asrash, qo‘shnichilik, mehr-oqibat va boshqa axloqiy qadriyatlarga oid hadislar jamlangan [1].

Imom al-Buxoriyga bo‘lgan yuksak ehtirom mazkur majmuaning tubdan yangilanishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan buyuk muhaddisning islom olamidagi yuksak mavqei va ilmiy merosiga munosib tarzda majmua qayta bunyod etildi. Majmua tarkibidagi muzey to‘qqizta pavilondan iborat bo‘lib, uning ekspozitsiyalarida Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, hadis ilmining shakllanishi va taraqqiyoti, shuningdek, islom ma’rifati tarixi zamonaviy multimedia, animatsiya, mapping va interaktiv texnologiyalar vositasida yoritilgan. Ekspozitsiyalarning mazmuniy va texnologik jihatdan kompleks ishlab chiqilgani ularni zamonaviy muzey kommunikatsiyasi tamoyillariga muvofiqlashtiradi.

Temuriylar davlati jahon tarixi va madaniyati taraqqiyotida muhim iz qoldirgan siyosiy va madaniy-tarixiy tuzilmalardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda ichki va tashqi savdo rivojlanib, Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan diplomatik va savdo aloqalari kengaygan. Shu bilan birga, ko‘plab masjid, madrasa va maqbaralar bunyod etilgan, sug‘orish inshootlari va kanallar barpo qilinib, sug‘orma dehqonchilik taraqqiy etgan. Amir Temur avlodlari esa bir necha asr davomida davlat boshqaruvi, harbiy ish, ilm-fan, adabiyot va madaniyat rivojiga muayyan hissa qo‘shgan.

Temuriylar davri va Amir Temur faoliyatini yorituvchi tarixiy manbalar orasida Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, G‘iyosuddin Ali Yazdiy, Ibn Xaldun, Ruy Gonsales de Klavixo va Ibn Arabshoh kabi mualliflarning asarlari alohida o‘rin tutadi. Ularning ayrimlari o‘zlari guvoh bo‘lgan yoki zamondoshlaridan eshitgan voqea-hodisalarni bayon etib, mazkur davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida muhim ma’lumotlar qoldirgan. Amir Temur vafotidan keyingi davrda ham Temuriylar davlatining siyosiy tuzilishi, boshqaruv tizimi va tarixiy merosiga bo‘lgan ilmiy qiziqish saqlanib qolgan. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond va Xondamir kabi tarixchilar asarlarida Amir Temur va uning avlodlari faoliyati muhim mavzulardan biri sifatida yoritilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruvi va huquqiy qarashlarini o‘rganishda adolat, tartib va boshqaruv masalalari alohida ahamiyatga ega. Amir Temur nomi bilan bog‘liq “Kuch — adolatdadir” tamoyili uning davlat boshqaruvida adolat va tartibni muhim mezon sifatida ko‘rganini ifodalovchi iboralardan biri sifatida tarixiy va ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanadi.

[1] Имом Бухорий. «Ал-жомеъ ас-саҳиҳ», «Ал-адаб ал-муфрад», «Ат-таърих ас-сағир» ва бошқалар. Мақсудов Д. Моваройуннахрлик муфассирлар // Имом Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б. 233.

Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasi va siyosiy-huquqiy qarashlari tarixiy manbalar, jumladan, “Temur tuzuklari” bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Mazkur manbada davlat boshqaruvi, harbiy tartib, mansab va vazifalar, qo‘shin tuzilishi, raiyat bilan munosabat hamda boshqaruv tamoyillariga oid qarashlar aks etgan. Shu jihatdan Amir Temur davri davlat boshqaruvi va huquqiy an’analarini tadqiq etish Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixini o‘rganishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [2].

Amir Temur va temuriylar davri tarixini ilmiy asosda yoritish borasida Temuriylar tarixi davlat muzeyining yangilangan ekspozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspozitsiyaning zamonaviy muzeyshunoslik tamoyillari asosida takomillashtirilishi tarixiy jarayonlarni tizimli va dalillarga asoslangan holda namoyish etish imkonini kengaytirdi. Yangi ekspozitsiya bugun Amir Temurni zamondoshlarimiz va butun dunyoga yana bir marta qaytadan kashf etish imkonini yaratdi.

Muzeylar sohasidagi modernizatsiya jarayonining yana bir muhim yo‘nalishi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq. Muzey O‘zbekiston hududida qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan tarixiy-madaniy jarayonlarni kompleks yorituvchi muhim ilmiy-ma’rifiy muassasalardan biridir. Muzey ekspozitsiyalarida mamlakat hududida shakllangan davlatchilik an’analari, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, buyuk allomalar, davlat arboblari, san’at va madaniyat namoyandalarining merosi tizimli tarzda namoyish etiladi.

2024 yildan boshlangan rekonstruksiya ishlari muzey binosining muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, fondlarni saqlash uchun zarur harorat va namlik rejimini ta’minlash, tashrif buyuruvchilar uchun qulay muhit yaratish hamda binoning tarixiy-me’moriy qiyofasini saqlab qolishga qaratildi. Shu bilan birga, ekspozitsiya zallarida zamonaviy yoritish tizimlari, multimedia vositalari, interaktiv texnologiyalar va raqamli axborot resurslaridan foydalanish uchun zarur infratuzilma yaratildi.

2026 yil iyul oyida rekonstruksiya ishlari yakunlanib, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi yangilangan interaktiv va multimedia ekspozitsiyalari bilan qayta ochildi. Yangi ekspozitsiya tarixiy voqea va jarayonlarni yaxlit konsepsiya asosida yoritish, muzey predmetlarining axborot salohiyatini ochib berish va tashrif buyuruvchilarning ekspozitsiya bilan interaktiv muloqotini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Muzey binosining arxitektura tarixi ham alohida ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. 1970 yilda Toshkent markazida barpo etilgan mazkur inshoot sovet modernizmi me’morchiligining o‘ziga xos namunalaridan biri hisoblanadi. 2026 yilda u YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan “Tashkent Modernist Architecture. Modernity and Tradition in Central Asia” nomli seriyali ob’ekt tarkibiga kiritildi. Bu holat muzey binosining nafaqat funksional, balki arxitektura-tarixiy meros sifatidagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Umuman, so‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston muzeylarida kechayotgan jarayonlarni oddiy ta’mirlash yoki ekspozitsiyalarni yangilash bilan cheklash mumkin emas. Bu jarayon muzeylarning institutsional, texnik, ekspozitsion va kommunikatsion salohiyatini kompleks modernizatsiya qilishni qamrab olmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni tarixiy manbalar va muzey predmetlari bilan uyg‘unlashtirish muzeylarning ilmiy-tadqiqot, ta’lim va madaniy kommunikatsiya funksiyalarini kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yangi muzeylarning barpo etilishi va mavjud muzeylarning rekonstruksiya qilinishi O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini saqlash, ilmiy o‘rganish va

[2] **Саидов А. Жузжоний А.** *«Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 2005 йил № 15*

jamoatchilikka zamonaviy usullarda taqdim etishning muhim institutsional asosini shakllantirmoqda.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining yangi ekspozitsiyasi mamlakat hududidagi eng qadimgi tosh davri yodgorliklaridan boshlab bronza davri, ilk davlatchilik shakllanishi, antik davr, ilk o‘rta asrlar, Birinchi Renessans, Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy yuksalish, o‘zbek xonliklari, Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davri, jadidchilik va milliy uyg‘onish harakati hamda mustaqillik yillaridagi taraqqiyot bosqichlarini xronologik va tematik izchillikda yoritadi.

Ekspozitsiyada Ahamoniylar va Iskandar Makedonskiy davri, Qadimgi Xorazm, Qang‘, Dovon va Kushon davlatlari, Buyuk Ipak yo‘li hamda buddaviylik madaniyatining mintaqa tarixidagi o‘rni arxeologik topilmalar, ilmiy rekonstruksiyalar va multimedia texnologiyalari vositasida namoyish etilgan. Shuningdek, Dalvarzintepadan topilgan oltin xazina namunalari, 1916 yil voqealariga oid materiallar, qatag‘onlar tarixini aks ettiruvchi ashyolar, Ikkinchi jahon urushi yillarida Shomahmudovlar oilasining faoliyatini yorituvchi hovli maketi hamda Xiva, Qo‘qon va Buxoro hukmdorlarining portretlari kabi muhim tarixiy manbalar tashrif buyuruvchilarga davrlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini anglash imkonini beradi.

Ekspozitsiyaning yakuniy qismi O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, mamlakatning zamonaviy rivojlanish bosqichi va 2016–2026 yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarga bag‘ishlangan. Unda davlat va jamiyat hayotining turli sohalaridagi o‘zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlari aks ettirilib, ularni Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda anglash imkoniyati yaratilgan. Mazkur yondashuv zamonaviy tarixni muzey ekspozitsiyasida tizimli ravishda hujjatlashtirish va jamoatchilikka yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi.

Multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, vizual axborot elementlari va interaktiv qurilmalarning joriy etilishi muzey kommunikatsiyasining zamonaviy shakllarini kengaytirgan.

Natijada ekspozitsiya nafaqat tarixiy ashyolarni saqlash va namoyish etish, balki tashrif buyuruvchilarning tarixiy jarayonlarni tizimli anglashi, voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni idrok etishi va milliy tarix haqida kompleks tasavvur hosil qilishiga xizmat qiluvchi ta’limiy-kommunikatsion muhitga aylangan.

Muzeyning xalqaro faoliyatida ham so‘nggi yillarda muhim o‘zgarishlar kuzatildi. Muzey tashkil topganining 150 yilligi munosabati bilan uning to‘plamlari va ilmiy salohiyatini xalqaro miqyosda namoyish etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2022 yilda Parijdagi Luvr muzeyida O‘zbekistonning o‘nga yaqin muzeylari fondlaridan tanlangan noyob tarixiy va madaniy meros namunalari namoyish etilgan ko‘rgazmaning tashkil etilishi O‘zbekiston muzeylari tarixida muhim voqea bo‘ldi. Ko‘rgazmaning O‘zbekiston va Fransiya davlat rahbarlari ishtirokida ochilishi muzeylararo va madaniy hamkorlikning xalqaro ahamiyatini yanada oshirdi.

Madaniy merosni asrab-avaylashning muhim yo‘nalishlaridan biri tarixiy va arxeologik artefaktlarni ilmiy asosda aniqlash, ularning huquqiy maqomini o‘rganish hamda xorijdan O‘zbekistonga qaytarish jarayonlaridir. So‘nggi yillarda mamlakatga tarixiy-madaniy meros ob’ektlarining qaytarilishi milliy muzey fondlarini boyitish, ularning ilmiy qiymatini qayta baholash va milliy merosni yaxlit tarzda tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi nihoyatda boy va ko‘p qirrali bo‘lib, uni muzeylar orqali to‘liq qamrab olish doimiy ravishda yangi ilmiy yondashuvlar va ekspozitsion yechimlarni talab etadi. Shu sababli zamonaviy muzeylarning vazifasi faqat mavjud kolleksiyalarni saqlash va namoyish etish bilan cheklanmaydi. Ular tarixiy xotirani shakllantirish, ilmiy bilimlarni

ommalashtirish, madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va jamiyatning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston muzeylari oldida turgan asosiy vazifalardan biri mamlakatning tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy yangilanish jarayonlarini ishonchli manbalar asosida hujjatlashtirish, ularni ilmiy jihatdan tadqiq etish va zamonaviy muzey vositalari orqali jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Bu jarayon muzey xodimlaridan ilmiy yondashuv, yuqori kasbiy mas’uliyat va zamonaviy muzey texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Уватов У. **Буюк муҳаддислар**. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. **Ал-Жомеъ ас-Саҳиҳ**. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти.
3. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. **Ал-Адаб ал-Муфрад (Одоб дурдоналари)**. – Тошкент: Мовароуннаҳр.
4. **Темур тузуклари**. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
5. Низомиддин Шомий. **Зафарнома**. – Тошкент: Ўзбекистон.
6. Шарафуддин Али Яздий. **Зафарнома**. – Тошкент: Шарқ.
7. Ибн Арабшоҳ. **Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур**. – Тошкент: Меҳнат.
8. Мирхонд. **Равзат ус-сафо**. – Тошкент: Фан.
9. Хондамир. **Ҳабиб ус-сияр**. – Тошкент: Ўзбекистон.
10. **Prix Versailles.** World’s Most Beautiful Museums and Cultural Buildings. – Paris.
11. **Guinness World Records.** Records related to museums and cultural institutions.
12. **CNN.** Materials on the Center for Islamic Civilization in Uzbekistan and its architectural and cultural significance.